



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O'QUVCHILARDA INTEGRATIV TA'LIM YONDASHUVI ASOSIDA TANQIDIY TAFAKKUR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Kazbekova Fariza Po'latovna
Navoiy davlat universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishda integrativ ta'limning muhim roli o'rganiladi. Maqolada fanlararo yondashuv orqali o'quvchilarda chuqur tahlil qilish, muammolarni hal etish va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari muhokama qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim muhitida ushbu ikki yondashuvni birlashtirishning afzalliklarini va amaliy strategiyalarini tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy tafakkur, integrativ ta'lim, fanlararo yondashuv, ta'limda innovatsiyalar, ijodiy fikrlash.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПОДХОДА

Казбекова Фариза Пулатовна
Навоийский государственный университет, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье рассматривается важная роль интегративного образования в развитии навыков критического мышления. В статье обсуждаются методы развития у студентов навыков глубокого анализа, решения проблем и творческого мышления посредством междисциплинарного подхода. Также анализируются преимущества и практические стратегии сочетания этих двух подходов в современной образовательной среде.

Ключевые слова: критическое мышление, интегративное образование, междисциплинарный подход, образовательные инновации, творческое мышление.

ISSUES OF DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS IN STUDENTS BASED ON INTEGRATIVE EDUCATIONAL APPROACH

Kazbekova Fariza Po'latovna
Navoi State University, Senior Lecturer

Abstract

This article examines the important role of integrative education in developing critical thinking skills. The article discusses methods for developing students' deep analysis, problem-solving, and creative thinking skills through an interdisciplinary approach. It also analyzes the advantages and practical strategies for combining these two approaches in a modern educational environment.

Keywords: critical thinking, integrative education, interdisciplinary approach, educational innovations, creative thinking.

Bugun jadallik bilan rivojlanib borayotgan va axborotlashgan jamiyat sharoitida tizimi oldida turgan eng muhim masalardan biri – bu o'sib kelayotgan yosh avlodning mustaqil, erkin,

tanqidiy va tahlil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bu masala faqatgina bizning ta'lim tizimimiz uchun dolzarb masala bo'lib qolmay, balki dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim masalalardan hisoblanadi. Chunki o'quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunda davr talabi. Xo'sh, bugun biz bot-bot tilga olayotgan tanqidiy tafakkur o'zi nima? Nima uchun biz o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishimiz kerak?

Tanqidiy tafakkur haqida fikr bildirishdan avval, tanqid va tafakkur tushunchalarining ma'nosini bilib olishimiz kerak. Yunon tilidan tarjimada "tanqid" so'zi izolyatsiya, ajralish degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilida tanqid tushunchasi boshqa ma'no kasb etdi va ko'p o'ldirildi. Tanqid tushunchasi insonning barcha aqliy faoliyatini o'z ichiga oladi. Tanqid – biror fikr, qarash, ish yoki hodisani tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash, kamchiliklarini asosli dalillar bilan ko'rsatish jarayonidir. Tanqidning maqsadi kamsitish emas, balki rivojlantirish, takomillashtirish, to'g'ri xulosa chiqarish va rivojlanishga, o'sishga yordam berishdir. Tanqid insonni ulg'aytiradi, o'z ustida ishlashga undaydi, majbur qiladi. Masalan, dars jarayonida o'quvchining javobini tanqid qilish – uning xatolarini ko'rsatib, to'g'ri yo'lga yo'naltirishdir. Inson tanqidni noto'g'ri ma'noda emas, balki to'g'ri ma'noda qabul qilsagina, o'sha insonda rivojlanish bo'ladi, o'sish bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, tanqid bor joyda rivojlanish bo'ladi.

Tanqidiy tafakkur bu tafakkur turlaridan bir hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash muhim ko'nikma hisoblanadi. Rivojlangan tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan shaxs kuzatuvchanlik va o'z nuqtai nazarini asoslash qobiliyati, axborotni o'rganishga e'tibor qaratish va turli vaziyatlarda tahliliy ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati kabi bir qator ko'nikmalarga ega bo'ladi. Tanqidiy fikrlash ta'lim innovatsiyalarida markaziy o'rin tutadi. Maktab o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ayniqsa muhimdir, chunki u nafaqat o'quv materialini chuqur tushunishga yordam beradi, balki ularni doimiy axborot oqimi va xabardor qarorlar qabul qilish zarurati muhitida hayotga tayyorlaydi.

Tanqidiy tafakkurning intellektual ildizlari miloddan avvalgi V asrda yashagan qadimgi yunon faylasufi Suqrotning ta'lim amaliyoti va qarashlariga borib taqaladi. Suqrot murakkab g'oyalarni kichikroq qismlarga bo'lish va har bir qismni bir qator savol-javoblar orqali tekshirishni o'z ichiga olgan so'roq usulini ishlab chiqdi. Suqrotning tanqidiy tafakkur haqidagi g'oyalari G'arb falsafasi va ta'limiga doimiy ta'sir ko'rsatdi va bugungi kunda ham keng o'rganilib, amaliyotga qo'llanilmoqda.

Sokratning fikricha, tanqidiy tafakkur insonni xatolarini yana bir bor ko'rib chiqishga va haqiqatga yo'naltirishga undaydi. Sokrat o'zining "Sokratik metodi"ni ishlab chiqdi. Bu metod savol-javobga asoslangan usul bo'lib, bu usulda insonlar o'zlarining fikrlari va qarashlarini shubha ostiga oladilar, o'z qarashlarini tanqidiy va tahliliy yondashuv asosida ko'rib chiqadilar. Ushbu metod hozir ham ahamiyatini yo'qotgan emas. Chunki hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda savol-javob usulidan keng foydalaniladi.

"Tanqidiy tafakkur" tushunchasi ilk bora XX asr asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Pedagogik, psixologik, sotsiologik adabiyotlar tahlili tanqidiy tafakkur, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga doir turli qarashlar mavjudligini ko'rsatdi. Dayana Xalpern "Psixologiya kriticheskogo mishleniya" asarida tanqidiy fikrlash "fikr yuritishning shunday ko'rinishini anglatadiki, u vazminlik, mantiq va maqsadga yo'naltirilganlik bilan ajralib turadi".

Xalpernning asarida, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun kerakli metodikalar, treninglar va psixologik yondashuvlar ham ko'rib chiqiladi. U, shuningdek, tanqidiy tafakkurning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy jihatlarini ham muhokama qiladi, chunki fikrlarni erkin ifodalash, boshqalarning fikrlarini tushunish va ularni baholash jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiy o'zaro aloqalar o'rnatishga yordam beradi. Asar, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik tamoyillari va uning ta'limdagi o'rnini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Kert Meredis, Charlz Tempplarning "Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qish va

yozish ” (O‘YOTF) loyihasida quyidagicha ta’kidlanadi: “Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g‘oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo‘lgan oqibatlarini ham e’tiborga oladi. Bunda odam bu g‘oyalarni dastlab ma’lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo‘shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o‘z nuqtai-nazarini ishlab chiqadi” .

Djeni Stil fikricha: “Faol va interaktiv bilishning bir nechta darajalarida bir vaqtda ro‘y beradigan jarayon tanqidiy fikrlash bo‘lib hisoblanadi. Tanqidiy fikr egasiga hiyla-nayranglar kamroq ta’sir qiladi, o‘zining shaxsiy qarashlar tizimi bo‘lgani uchun ular turli xavf-xatardan xoli bo‘ladilar” .

Amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyuining fikricha: “O‘quvchilar muayyan muammo bilan shug‘ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo‘ladi. Shu sababli, o‘quv jarayonining boshlang‘ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo‘lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishni anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o‘zining shaxsiy yo‘lini izlagandagina, o‘quvchi haqiqatan ham fikrlaydi” .

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida integratsiya ta’lim tizimining ustuvor metodologik tamoyillaridan biriga aylanmoqda. Axborot oqimining keskin ortib borishi, fan va texnologiyalar taraqqiyotining jadallashuvi, mehnat bozorida universal kompetensiyalarga bo‘lgan talabning kuchayishi ta’lim mazmunini yangicha yondashuv asosida tashkil etishni taqozo qilmoqda. Bunday sharoitda alohida fanlar doirasida beriladigan fragmentar bilimlar yetarli bo‘lmay, ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish va tizimlashtirish zarurati yuzaga keladi. Zamonaviy ta’lim tizimida integratsiya kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ta’lim standartlarida o‘quvchilarda tayanch va funksional kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash hamda muammoli vaziyatlar asosida o‘qitishni talab qiladi. Integrativ yondashuv aynan shu vazifani bajarishga xizmat qiladi.

Raqamli ta’lim muhitining kengayishi ham integratsiya jarayonini jadallashtirmoqda. Masalan, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi fanlararo integratsiyaning amaliy ifodasi bo‘lib, u o‘quvchilarda tizimli, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Bunda tabiiy va aniq fanlar, san’at hamda texnologiya bilan uyg‘unlashib, muammoni kompleks hal etish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Shuningdek, bugungi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit o‘quvchilardan moslashuvchanlik, tezkor fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishni talab etadi. Integratsiya esa turli bilim sohalarida o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ochib berish orqali o‘quvchilarning analitik va refleksiv faoliyatini faollashtiradi. Natijada ular hodisa va jarayonlarni ko‘p qirrali tahlil qilish, global va lokal muammolarni tizimli anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Integratsiya lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, qayta tiklash, to‘ldirish, bir butun qilish kabi ma’nolarni anglatadi. Integratsiyaning falsafiy va pedagogik nuqtai nazardan talqin qilish mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan integratsiyaning ta’riflaydigan bo‘lsak, u quyidagicha ma’no kasb etadi: integratsiya differensiyatsiya jarayoniga qarama-qarshi bo‘lgan, ammo u bilan dialektik birlikda namoyon bo‘ladigan hodisa bo‘lib, tizim elementlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishini ifodalaydi.

Pedagogik jihatdan esa integratsiya bu ta’lim metodlari, vositalari, mazmuni hamda tashkiliy shakllarining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida fanlararo aloqadorlikni ta’minlash jarayoni sifatida talqin etiladi. U o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini yaxlit va tizimli holda rivojlantirishga yordam beradi. Integratsiya jarayonida o‘quv fani mazmuni boshqa fanlar bilan boyitilib, umumiy tushunchalar, kategoriyalar va qonuniyatlar asosida birlashtiriladi natijada yangi didaktik sifat yuzaga keladi.

Ilmiy manbalarni o‘rganish natijasida ma’lum bo‘ldiki, integratsiya atamasi ilmiy

tushuncha sifatida XX asrning 80-yillarida kirib keldi. Dastlab ijtimoiy hayot, axborot, iqtisodiyot, siyosat sohasiga tezda kirib bordi. Ta'lim sohasiga esa XX asrning 90-yillarida kirib keldi. Hozirgi vaqtda bu tushuncha pedagogika fanining asosiy kategoriyalaridan biriga aylanib ulgurdi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "integratsiya" atamasiga turli manbalarda turlicha ta'rif berilgan. Ularning ba'zilari bilan tanishsak:

Buyuk olim Yan Amos Komenskiy ta'kidlaganidek: "o'zaro bog'liq bo'lgan hamma narsani bir xil aloqada o'rgatish kerak".

L.N.Baxarevaning fikriga ko'ra, integratsiya differensiyatsiya jarayonlari bilan sodir bo'ladigan fanlarning yaqinlashishi va bog'lanishi jarayoni sifatida ochib beradi. Bu ta'limning sifat jihatidan yangi darajasidagi aloqalarning yuqori shakli bo'lib, yangi butunlikni yaratishga hissa qo'shadi..."

Binobarin, integratsiya har qanday elementlarning birligida bir butunlikka birlashish, har qanday birlikni tiklashdir.

Integratsiya keng ma'noda elementlar, jarayonlar, bilimlar tizimining bir butun holda o'zaro uyg'unlashuv hodisasidir. U turli xil fanlar, metodlar, usullar, maqsadlar va pedagogik komponentlarning bir butun holda tizimlashuvidir. Integratsiya atamasini umumiy tizimning konsolidatsiyasi, ya'ni (pedagogik ma'noda) kengayishi sifatida tushunish mumkin. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, integratsiya ta'lim jarayoniga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

1.O'quv jarayonining mazmuni va metodlari orasidagi bevosita bog'liqlik orqali o'quvchilar bilimni mustahkamlaydi.

2.Turli fanlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi.

3.O'quvchilarning ijtimoiy va intellektual imkoniyatlari kengayadi, vaziyatlarga o'z munosabatini bildiradi.

Integrativ ta'lim konsepsiyasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda shaxsning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Bu yondashuv fanlararo uyg'unlikni ta'minlash va bilimlarni tizimli shaklda egallashga xizmat qiladi, shuningdek, o'quvchida mantiqiy va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. An'anaviy predmetga yo'naltirilgan o'qitish modeli bilimlarni alohida bloklar sifatida berish bilan cheklanishi mumkin, natijada o'quvchi real hayotiy muammolarni tahlil qilishda qiyinchilikka duch keladi. Shu bois integrativ yondashuv o'quvchini bilimlarni kompleks tizim sifatida qabul qilishga, ularni solishtirish, baholash va amaliy vaziyatlarda qo'llashga o'rgatadi.

Nazariy jihatdan integrativ ta'limning ildizlari progressiv pedagogika va konstruktivistik yondashuvlarda aks etadi. John Dewey ta'limni hayotiy faoliyat bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin qilgan va o'quvchida muammoli vaziyat orqali bilimni shakllantirishning samarali mexanizmini ta'kidlagan. Shu bilan birga, Jean Piaget kognitiv rivojlanish nazariyasida yangi bilimlarning mavjud bilimlar tizimiga qo'shilishi (assimilyatsiya) va yangicha tuzilishga o'tishi (akkomodatsiya) jarayonlarini ta'riflab, integrativ o'qitishning psixologik asoslarini ochib bergan.

Ijtimoiy-madaniy yondashuvga ko'ra, Lev Vygotskiy tafakkur rivojlanishini hamkorlik va ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi. Integrativ ta'limda guruhviy muhokama, fanlararo topshiriqlar va loyiha ishlari aynan shu mexanizm asosida o'quvchilarning tafakkur faolligini oshiradi.

Tanqidiy tafakkur konsepsiyasi esa zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Robert Ennis tanqidiy fikrlashni dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish qobiliyati sifatida ta'riflagan, Richard Paul esa tanqidiy tafakkurning intellektual standartlari va baholash mezonlarini ishlab chiqqan. Integrativ ta'lim esa tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi mexanizmlarni taqdim etadi: fanlararo tahlil va taqqoslash, muammoli vaziyatlarni yaratish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, refleksiv

baholash va loyiha faoliyatini tashkil etish.

Shuningdek, Jerome Bruner spiral o'quv dasturi va bilimlarni tizimli shakllantirish nazariyasi orqali integrativ ta'limning metodologik asoslarini kengaytirgan, Hilda Taba esa fanlararo o'quv dasturlarini loyihalash metodikasini ishlab chiqqan. MDH mamlakatlarida esa Vasily Suxomlinsky va Aleksey Leontev pedagogik faoliyat va faoliyat nazariyasi orqali integratsiyaning psixologik-pedagogik mexanizmlarini yoritgan.

Natijada integrativ ta'lim o'quvchilarda bilimlarni tizimli qabul qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, turli nuqtai nazarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu yo'l bilan fanlararo uyg'unlik va muammoli vazifalarni qo'llash tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va tanqidiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Shu maqsadda pedagogik amaliyotda integrativ ta'lim yondashuvi keng qo'llanilmoqda. Integrativ yondashuv turli fanlar bilimlarini birlashtirib, o'quvchilarda murakkab masalalarni hal etish, konseptual va tizimli fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik metod hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish, baholash, mantiqiy xulosalar chiqarish va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi psixologik-protsessual jarayondir. Uning asosiy xususiyatlari ma'lumotlarni selektsiyalash va tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, ijodiy va mantiqiy fikrlashni uyg'unlashtirish hamda qaror qabul qilishda mustaqillikni shakllantirishdan iborat. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga nafaqat bilimlarni chuqur o'zlashtirish, balki kundalik hayotiy va ilmiy masalalarni hal qilish imkonini beradi.

Integrativ ta'lim yondashuvi fanlararo bog'lanishlarni yaratish, mavzularni kontekstual tarzda o'rgatish va o'quvchilarni murakkab muammolarni hal etishga yo'naltirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv ma'lumotlarni tizimli va kompleks tarzda tahlil qilish, fanlararo bog'lanishlarni aniqlash, ijodiy va tanqidiy fikrlashni uyg'unlashtirish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli vazifalar, fikrlar xaritasi va diagrammalar, guruhli muhokamalar hamda interaktiv loyihalar samarali hisoblanadi. Muammoli vazifalar o'quvchilarga bir nechta fan bilimlarini qo'llash orqali murakkab vazifalarni hal qilishni o'rgatadi. Fikrlar xaritasi va diagrammalar ma'lumotlarni vizual tarzda tahlil qilish, mavzular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash imkonini beradi. Guruhli muhokamalar o'quvchilarga dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va o'z fikrini himoya qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Interaktiv loyihalar esa nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi.

Pedagoglar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda dars mazmunini fanlararo yondashuvga moslashtirish, mustaqil va guruh bilan ishlash imkoniyatini yaratish, vazifalarni real hayotiy kontekst bilan bog'lash hamda tanqidiy fikrlashni baholash mezonlarini aniqlashga e'tibor berishlari lozim. Shu tarzda, integrativ ta'lim yondashuvi o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi, ular ma'lumotlarni tahlil qiladi, fanlararo bog'lanishlarni aniqlaydi va mustaqil, dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini egallaydi. Pedagoglar esa dars jarayonini interaktiv, qiziqarli va maqsadga muvofiq tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, integrativ ta'lim yondashuvi o'quvchilarda muammolarni tahlil qilish va ularni turli nuqtai nazardan baholash qobiliyatini shakllantiradi. O'quvchilar nafaqat mavzuni yodlab olish bilan cheklanmay, balki uni mantiqiy tizimga solib, real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, matematik va tabiiy fanlar bilimlarini birlashtirgan muammoli vazifalar o'quvchida muammolarni kompleks hal etish qobiliyatini rivojlantiradi, tarix va adabiyot fanlarida integrativ yondashuv esa o'quvchiga ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish va ularning

sabablari bilan bog'liq xulosalar chiqarish imkonini beradi. Integrativ ta'lim orqali o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari mustahkamlanadi. Ular muayyan masalaga oid ma'lumotlarni yig'ib, ularni tahlil qiladi va dalillarga asoslangan xulosalar chiqaradi. Shu jarayonda o'quvchilar o'z fikrini himoya qilish, boshqa fikrlarni tinglash va baholash kabi ijtimoiy-intellektual ko'nikmalarni ham egallaydilar. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interaktiv metodlar muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, guruhda muhokama qilish yoki loyiha ishlari o'quvchiga mavzuni har tomonlama tushunish, o'z fikrini dalillar bilan mustahkamlash va boshqa guruh a'zolarining fikrlarini tahlil qilish imkonini beradi. Shu tarzda, o'quvchilar analitik va ijodiy fikrlashni uyg'unlashtirishni o'rganadilar, bu esa ularning bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga, integrativ ta'lim yondashuvi o'quvchilarda motivatsiya va faollikni oshirishga yordam beradi. O'quv jarayonida mavzular real hayotiy kontekst bilan bog'langanida, o'quvchilar o'qish jarayonini qiziqarli va foydali deb qabul qiladi. Bu esa ularning mustaqil o'qish va ilmiy tadqiqotga qiziqishini kuchaytiradi.

Natijada, integrativ ta'lim yondashuvi o'quvchilarda tanqidiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Pedagoglar dars jarayonini fanlararo yondashuvga moslashtirish, muammoli vazifalar, guruhli muhokamalar va interaktiv loyihalardan foydalanish orqali o'quvchilarning bu qobiliyatlarini yanada mustahkamlashlari mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini baholash mezonlarini aniqlash va ularga muntazam tahlil qilish imkoniyatini berish pedagogik jarayonning sifatini oshiradi. Integrativ ta'lim yondashuvi orqali o'quvchilar nafaqat mavzuni o'rganadilar, balki uni hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish, turli nuqtai nazardan baholash va ijodiy yechimlar topish ko'nikmalarini egallaydilar. Shu tarzda, tanqidiy fikrlash va integrativ yondashuvning uyg'unligi o'quvchilarning fikrlash darajasini oshirish, ilmiy qarorlar qabul qilish va ijtimoiy-intellektual ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Критическое мышление — советы по развитию [Электронный ресурс] // Happy Monday. URL: <https://happymonday.ua/ru/jak-rozvynuty-krytychne-myslennja>. (дата доступа 10.02.2024).
2. Akramova G.R. O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish.: Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent: 2023. - B.13.
3. Xalpern D. Psixologiya kriticheskogo mishleniya. – Sankt peterburg, Luch, 2000. – B.45.
4. Джени Стил, Керт Мередис, Чарлз Темпл. Проект. Чтение и письмо для развития критического мышления. Пособие 1-7. Бишкек, 2000. – С.23.
5. Джени Стил, Керт Мередис, Чарлз Темпл. Проект. Чтение и письмо для развития критического мышления. Пособие 1-7ю Бишкек, 2000. – С.35.
6. Дьюи Дж. Индивидуализация обучения школьников. -Чикаго, 1991.- С.19.
7. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения: В 2 т. /Я. А. Коменский. – Т.1. – М.: Педагогика, 1982.
8. Бахарева Л.Н. Интеграция учебных занятий в начальной школе на краеведческой основе /Л.Н. Бахарева //Начальная школа. – 1991.
9. Федорец Г.Р, Проблемы интеграции в теории и практике обучения (пути развития) /Г.Р.Федорец. – Л., 1990.
10. John Dewey. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
11. Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. – London:Routledge, 1950.
12. L.Vygotsky. Mind in Society. -Cambridge, MA:Harvard University Press, 1978
13. R.Ennis R.H.Critical Thinking. – Prentice Hall, 1966.
14. R.Paul. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. _Prentice Hall, 2001.